

I. TOVARLAR VA XIZMATLAR BOZORI

2018 yil yanvar-dekabrda chakana tovar aylanmasi 11147,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,2 foizga o'sdi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2017 yil yanvar-dekabr ga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>Yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Jami	11147,0	105,2	100
<i>shu jumladan: mulkchilik shakllari bo'yicha</i>	x	x	x
davlat mulki	3,3	76,7	0,03
nodavlat mulki	11143,7	105,2	99,97


Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2018 yil yanvar-dekabrda 1059,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 140,6 foizni tashkil qildi.

Kichik(biznes) tadbirkorlik sub'ektining jami chakana savdo hajmi 2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 8437,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,0 foizga oshgan.

2018 yil yanvar-dekabrda chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2017 yil yanvar-dekabrga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>Yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
CHakana tovar aylanmasi	11147,0	105,2	100
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	1059,0	140,6	9,5
Kichik tadbirkorlik	8437,6	104,0	75,7
Uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	1650,4	95,2	14,8

Chakana savdo tarkibi, foizda



Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 212,2 mlrd. so‘mga etdi yoki 2017 yil yanvar-dekabrga nisbatan 104,5 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo (umumovqatlanish faoliyatini qo‘shgan holda) aholi jon boshiga hisoblaganda 2965,1 ming so‘mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-dekabr oylarida 2436,7 ming so‘mni tashkil etgan).